

Surxondaryoda izlanuvchan talabalar uchun hokim stipendiyasi ta'sis etiladigan bo'ldi



Surxondaryoda izlanuvchan talabalar uchun hokim stipendiyasi ta'sis etiladigan bo'ldi

Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolovning yoshlar bilan qiziqarli savollar va samimiy javoblarga boy bo'lgan ochiq muloqoti chog'ida yigit-qizlar ilm-fan, san'at va adabiyot kabi sohalarda erishayotgan yutuqlari haqida hamgapirib berishdi. Ijodkor yoshlar viloyat rahbariga chop etilgan ilk kitoblarini tuhfa qildi. Kuy-qo'shiqlar ijro etdi.

Uchrashuvda eng bilimli, izlanuvchan talabalar uchun 1 milliard so'm mablag' ajratilib, hokim stipendiyasi ta'sis etiladigan bo'ldi. Muloqot yakunida bir guruh eng faol yoshlarga viloyat hokimining pul mukofotlari va qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.